IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: II57810507

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**

**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI**

**“TASDIQLAYMAN”**
**Qo‘qon davlat universiteti**
**rektori D.Sh.Xodjaeva**
**29-avgust 2025-yil**

# BIBLIOGRAFIYASHUNOSLIK

## O‘QUV DASTURI

| | | |
|---|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 300 000 | - Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot. |
| **Ta’lim sohasi:** | 320 000 | - Jurnalistika va axborot. |
| **Ta’lim yo‘nalishi:** | 60320400 | - Kutubxona-axborot faoliyati (kutubxonachilik va bibliografiya) |

**Qo‘qon– 2025**

| Fan/modul kodi<br><br>BIB200112 | O‘quv yili<br><br>2025/2026 | Semestr<br><br>2/3/4 | ECTS-Kreditlar<br><br>4/4/4 | |
|---|---|---|---|---|
| Fan/modul turi<br>Majburiy | Ta’lim tili<br>o‘zbek/rus | | Haftadagi dars soatlari<br>3/3/3 | |

| 1. | Fanning nomi | Auditoriya mashg‘ulotlari (soat) | Mustaqil ta’lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
|---|---|---|---|---|
| | Bibliografiyashunoslik | 48/48/48 | 72/72/42 | 120/120/120 |

2.

**I.Fanning mazmuni**

Fanini o‘qitishdan maqsad - talabalarga, kutubxona-axborot muassasalari Bibliografiyashunoslik fanining nazariy va amaliy tomonlarini, metodologik asoslarini o‘rgatishdan iborat.

Talabalarda ushbu fan bo‘yicha olgan nazariy va amaliy bilimlarini zamonaviy kutubxona-axborot faoliyatini tashkil qilish va boshqarish, boshqarishning huquqiy asoslari, rivojlanish qonuniyatlarini va o‘ziga xos xususiyatlarini, tamoyillari va shakllarini qo‘llay olish bo‘yicha ko‘nikmalar hosil qilishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun fan talabalami nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, ijtimoiy hodisa va jarayonlar haqida uslubiy ko‘nikma hamda dunyoqarishni shakllantirish vazifalarini bajaradi.

**II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1.mavzu: Kirish: “Bibliografiyashunoslik” fanining predmeti va vazifalari.**

“Bibliografiyashunoslik” fanining predmeti va vazifalari. Fanning nazariy va metodologik asoslari. Kutubxona-axborot muassasalarida bibliografik xizmat ko‘rsatishning hozirgi ahvoli, taraqqiy ettirish yo‘llari va muammolari. Fanning boshqa fanlar bilan bog‘liqligi, maqsadi va vazifalari.

**2.mavzu: Bibliografiyaning tarixi: bibliografiya tushunchasi, kelib chiqishi, zamonaviy talqini. Bibliografiyaning ahamiyati. Tarixiy bibliografiya**
https://www.ucl.ac.uk/module-catalogue/modules/historical-bibliography-INST0015

Bibliografiyaning tushunchasi, kelib chiqishi. Bibliografiyaning jamiyat hayotidagi o‘mi va ahamiyati. Zamonaviy bibliografiyaning alohida faoliyat ko‘rsatish obyektlari: Bibliografiyashunoslik; Bibliografiya nazariyasi; Bibliografiya tarixi; Bibliografiyaning metodikasi;

Bibliografiyani tashkil etish.

**3.mavzu. O‘rta asrlarda bibliografiya tarixi (kitob bosish kashf qilingunga qadar). Biobibliografik Iug‘atlar O‘rta asrlar bibliografiyasining alohida janri.**
Bibliografiyaning boshqa turlarini paydo bo‘lishi. O‘rta asrlarda bibliografiya tarixi (kitob bosissh kashf qilinishidan oldingi davr) o‘ziga xos xususiyatlari. O‘rta asrlarda kitoblar va yozma materiallar asosan qo‘lyozma shaklida mavjudligi. O‘rta asrlarda (matbaa tarqalishidan oldin)

G'arbiy Yevropa mamlakatlarida, Vizantiyada bibliografik faoliyat ancha rivojlanganligi.

4.**mavzu. O‘rta Osiyoda bibliografiyani paydo bo‘lishi va rivojlanishi.**

O‘rta Osiyo bibliografiyasini paydo bo‘lishi. Beruniy va bibliografiY. Temuriylar davrida bibliografiy. O‘rta Osiyoda bibliografik faoliyat ko‘p asrlik tarixiy taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi. Agar O‘rta Osiyo xalqlari bibliografik ishlarining kelib chiqishi va rivojlanishidan to hozirgi kungacha ierarxik (bosqichma-bosqich tartibda joylashgan) zanjir tuzadigan bo‘lsak, bu zanjirning uzunligi 149 yilni tashkil qiladi. O‘rta Osiyo xalqlari bibliografik ishlarining rivojlanish muammolari va O‘zbekiston milliy bibliografiyasi tarixini keng qamrovli o‘rganib kelinmoqda

**5.mavzu: XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning boshlarida Turkistonda bibliografiya ishini rivojlanishi.**

V.I.Mejov tomonidan “Turkiston to‘plami” ning yaratilishi. “Turkiston to‘plami”ga V.I.Mejov tuzgan yordamchi ko’rsatkichlar. N.V.Dmitrovskiy rahbarligida “Turkiston to‘plami” ning tuzihshi. A.A Semenov boshchiligida “Turkiston to‘plami”ning tuzilishi“Turkiston lo‘plami” ustidagii ishning davom cttirilishi. V. I. Mcjov an’analarining davom ettirilishi

**6.mavzu: O‘zbckistonda sobiq sho‘rolar lioldmiyati davrida bibliografik faoliyatning tashkil qilinishi**

1924-1941 yillarda O‘zbekistonda bibiiografiya ishining rivojlanishi; Urush yillarida O‘zbekistonda bibiiografiya ishining tashkil qiiinishi; Urushdan keyingi yillarda Respublikamiz mustaqilligi yillarigacha bo‘lgan davrda 0‘zbekistonda bibiiografiya ishi;

**7.mavzu. O‘zbckistonda bibiiografiya ishining hozirgi ahvoli**

A.Navoiy nomli O‘zbekistonning milliy kutubxonasi bibliografik faoliyati. Viloyatlardagi ilmiy-universal kutubxonalaming bibliografik faoliyati. Sohaviy va ommaviy kutubxonalaming bibliografik faoliyati. O‘zbekiston bibliografiyasi ishining muammolari. Hozirgi kunda O‘zbekiston Milliy kutubxonasi va boshqa yirik kutubxonalar tomonidan o‘zbekistonlik mualliflarning asarlarini ro‘yxatga olish va bibliografik ma'lumotlarni to‘plash bo‘yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Shuningdek, O‘zbekistonda bibliografiya yaratish sohasidagi bir nechta xalqaro va milliy ma'lumot bazalari mavjudligi.

**8.mavzu: Milliy va davlat bibliografiyasi. O‘zbekistonda milliy va davlat bibliografiyasi.**

Milliy va davlat bibliografiyasi haqida tushuncha, uning taraqqiyoti. Respublika Milliy kitob palatasi faoliyat. Kutubxonachilik sohasida bibliografiyaning «Milliy bibliografiya» turi muhim o‘rin tutadi. Binobarin, «Milliy bibliografiya» tushunchasi keng ma’noni anglatib, atama sifatida millatga xos va uning faoliyati chuqur tarixiy, ilmiy ildizga yega. «Milliy bibliografiya» mamlakat hududida uning tarixiy rivojlanishi jarayonida yaratilgan barcha (qo‘lyozmalardan tortib to yelektron ko‘rinishdagi) hujjatlar haqida universal bibliografik ma’lumotlarni saqlash va ular bilan ishlashni ta’minlashga qaratilgan

**9.mavzu: Ijtimoiy-siyosiy va soha bibliografiyasi. O‘zbckistonda ijtimoiy-siyosiy soha bibliografiyasi.**

Ijtimoiy-siyosiy bibliografiyaning o‘ziga xos xususiyatlari. Ijtimoiy-siyosiy mazmundagi bibliografik manbalami asosiy tizimi. Soha bibliografiyasi haqida umumiy tushuncha. ijtimoiy-siyosiy hayotning turli sohalari bo‘yicha yozilgan ilmiy va ommabop asarlarni, maqolalarni, kitoblarni, dissertatsiyalarni, monografiyalarni va boshqa nashrlarni tizimli ravishda ro‘yxatga olish va tasniflash

**10.mavzu: Ilmiy-yordamchi bibliografiY. O‘zbckistonda ilmiy-yordamchi bibliografiyani shakllanishi**

Ilmiy- yordamchi bibliografik qo‘llanmalar. Kundalik ilmiy-yordamchi bibliografik

qo‘llanmalar Retrospektiv ilmiy-yordamchi bibliografik qo‘llanmalar Kasbiy va ishlab chiqarishga oid bibliografik qo‘llanmalar. O‘zbekistonda ilmiy-yordamchi bibliografiya tizimi, asosan, mustaqillikdan keyin kuchaygan va elektron resurslar, ilmiy kutubxonalar va axborot markazlari tomonidan rivojlantirilgan. Bugungi kunda bu tizim ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash, ilmiy adabiyotlarni jamlash va ularni tahlil qilish borasida muhim ahamiyat kasb etadi

**11.mavzu: Olkashunoslik bibliografiyasi. O‘zbekistonda o‘lkashunoslik bibliografiyasi.**

O‘lkashunoslik bibliografiyasi haqida umumiy tushuncha O‘lkashunoslik hujjatlari: nashr xillari va turlari O‘lka haqidagi ilmiy adabiyotlar.O‘lkashunoslik ilmiy ommabop adabiyotlari. 0‘lkashunoslik ma’lumotnoma adabiyoti. O‘lkashunoslik ishlab chiqarish adabiyoti. O‘lka haqida badiiy asarlar.

**12.mavzu: Tavsiya va shaxs bibliografiyasi. O'zbckistonda tavsiya va shaxs bibliografiyasi**

Tavsiya bibliografiyasi tushunchasi. Universal bibliografiya. Tarmoq qo'llanmalar. Shaxs bibliografiyasi haqida umumiy tushuncha Mahalliy arboblar haqidagi bibliografik ko'rsatkichlar va qo‘llanmalar, lug‘atlar va boshqalar Tavsiya bibliografiyasi **va** shaxs bibliografiyasi ilmiy tadqiqotlarda turli maqsadlarda yaratiladiganligi muhim bibliografik manbalar haqida. Ikkalasi ham ma'lumotlarni tizimli tarzda taqdim etishga xizmat qilishi, ammo ularning tuzilishi va maqsadi farq qilishi.

**13.mavzu: Bibliografiyaning nazariyasi: bibliografik axborot tushunchasi va mazmuni. Bibliografik kirish. Bibliografik axborot. Bibliografik xabar. Bibliografik yozuv. Bibliografiya aniqligi: eski bibliografik yozuvlarda xatoliklar va ularni tuzatish metodlari** (seis.ucla.edu)

Madaniy va tarixiy nuqtai nazardan, "bibliografiya" tushunchasi axborot faoliyati rivojlanishi. Ijtimoiy faoliyat va madaniyatning ushbu eng muhim sohasini maqsadli rivojlantirish. Bibliografiyaning faoliyat sifatidagi o‘ziga xos roli axborot faoliyatining kengroq tizimida (kitobshunoslik, hujjatlashtirish) va bibliografiyaning fan sifatida - kitobshunoslik tizimida (hujjatshunoslik, axborotshunoslik va boshqalar) e'tirof etilishi. Bibliografiyaning (kitobshunoslik) insoniy muloqot haqidagi fan sifatida ta'rifiga taalluqlidir, ya'ni kitob nashr etish, axborot faoliyati va muloqot haqidagi nazariy bilimlarni keng ommaga yoyish. Bibliografiya vazifalariga nisbatan mavhumlikdan aniqlikka ko‘tarilish kabi dialektik usuldan foydalanish va tavsiflash bibliografiya nazariyasining maqsadidir.

**14.mavzu: Bibliografik faoliyat - bibliografiyaning nazariyasini markaziy katcgoriyasi**

Bibliografik faoliyat. Bibiiografiya xizmati. Kutubxonalarda bibliografik faoliyatning asosiy yo‘nalishlari. Bibiiografiya ishini tashkil ctish. Bibliografik faoliyat predmeti ancha murakkab tushunchadir. Bu qobiliyat quyidagilarni o‘z ichiga olishi mumkin: professional bibliograf; ma'lum bir jamoa (bibliografiya bo‘limi, sektor, muassasa, o‘zaro bog'langan bibliografik xizmatlar tarmog'i); vaqtinchalik bibliografik tadqiqot bilan shug'ullanuvchi noprofessional (olim, o‘qituvchi, yozuvchi, jurnalist va boshqalar); bibliografik ma'lumotlarning iste'molchisi, birinchi navbatda, bibliografik faoliyat ob'ekti bo‘lib, ayni paytda faol ishtirok etuvchi shaxs, bibliografik jarayonlarni amalga oshirishda ularning predmetiga aylanadi. Agar bibliografiyani keng ma'noda ko‘rib chiqsak, uning sub'ektlari ham bibliograf – bibliografiya sohasida tadqiqot faoliyati bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchidir; oliy va o‘rta ta'lim muassasalarida bibliografik fanlarni o‘qituvchi; bibliografik ishlar bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar

**15.mavzu: Bibliografik faoliyatning jarayonlari va vositalari.**

Bibliografiyani muayyan inson faoliyati sifatida ko‘rib chiqishga o‘tish haqiqiy bibliografik

jarayonning haqiqiy murakkabligini aniqlash imkonini beradi. Bibliografiya aynan inson faoliyatida, u yashayotgan va ishlayotgan ijtimoiy sharoitlar bilan belgilanadi, uning tarixiy o‘ziga xos mazmuniga ega bo‘ladi. Bibliografiyaning yangi shakllari doimo bibliografik ma'lumotlarga bo‘lgan jamoatchilik ehtiyojlarining rivojlanishi va murakkabligi natijasida vujudga kelganligi. Hujjatlar bibliografiyasi va axborot iste'molchilariga bibliografik xizmatlar ko‘rsatish.

**16.mavzu: Bibliografik mahsulotlar turlari, o‘ziga xos xususiyatlari.**

Bibliografik mahsulot foydalanuvchilarga ma'lumotlarni izlashda yordam beradigan, ma'lum bir mavzu yoki soha bo‘yicha tasniflangan va tizimga solingan manbalar ro‘yxati. Bibliografik mahsulotlar kitobxonalarda, ilmiy-tadqiqot muassasalarida, axborot markazlarida foydalanuvchilarga kerakli adabiyotlarni topish uchun keng qo‘llanilishi. Bibliografik mahsulotlar turlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari. Keng ko‘lamli, ko‘plab mavzularni qamrab olgan, foydalanuvchilar uchun umumiy ma'lumotlarni taqdim etuvchi bibliografik mahsulotlar.

**17.mazu: Bibliografik xizmat ko'rsatish: tushunchasi va asosiy turlari.**

Kutubxonalar va axborot muassasalarida foydalanuvchilarga ma'lumotlarni izlash, to‘plash va tizimlashtirish orqali kerakli axborot manbalarini taqdim etish jarayonini. Foydalanuvchining ilmiy, ma’rifiy yoki kundalik hayotda zarur bo‘lgan ma'lumotlarni topishiga yordam berish. Bibliografik xizmat ko‘rsatish kutubxonalarda ma'lumotlarga kirishning eng samarali usulini taqdim etadi

**18.mavzu: Ma’lumot-bibliografik ko'rsatish. Turli xil so'roqlarni bajarish**

Ma’lumot-bibliograflya xizmat ko’rsatish haqida umumiy tushuncha. Bibliografik ma’lumot. Faktografik ma’lumot Turli xil so’roqlarni bearish xususiyatlari. Ma’lumot-bibliografik xizmat ko‘rsatish kutubxonalarda foydalanuvchilarga axborot olishda yordam berish, turli so‘roqlarni bajarish va zarur ma'lumotlarni taqdim yetishda muhim rol o‘ynaydi. Bu xizmatlar kutubxona foydalanuvchilariga ilmiy, ishbilarmonlik, ta’lim va kundalik hayotda kerakli axborotni topishga yordam beradi.

**19.mavzu: Virtual ma’lumot - bibliografik xizmat ko'rsatish: tushunchasi va o‘ziga hos hususiyatlari.**

Virtual ma’lumot xizmati. Virtual kutubxona (virtual library). Elcktron kutubxona (electronic" library) Virtual ma’lumot-bibliografik xizmatining ishlash prinsipi. Virtual ma’lumot-bibliografik xizmat ko’rsalish jarayonidagi javoblar turlari Virtual ma'lumot-bibliografik xizmat, foydalanuvchining so‘roviga javoban axborot resurslarini izlash va taqdim yetish xizmatini anglatadi. Bu xizmatda kitobxona xodimlari yoki axborot mutaxassislari foydalanuvchining talabiga binoan kerakli bibliografik ma'lumotlarni, ilmiy maqolalarni, kitoblarni yoki boshqa resurslarni izlab, yelektron shaklda taqdim yetadilar.

**20-mavzu: Bibliografiyaning uslubiyoti: xujjatlar oqimi tushunchasi va rivojlanish qonunivligi.**

Bibliografiyaning uslubiyoti bibliografik faoliyatni tashkil etish va uning metodologik, uslubiy jihatlarini ishlab chiqish jarayoni. Uslubiyot nafaqat bibliografiya tizimining asosiy tamoyillarini belgilash, balki uning funktsiyalari va vositalarini ham aniqroq ifodalashni ko'zda tutadi. Bu, shuningdek, bibliografiya faoliyatini, ayniqsa axborotlar oqimi, hujjatlarning tahlili, tartibga solish va tizimlashtirishni osonlashtiradi. Bibliografiyaning uslubiyoti tushunchasi to'g'risida juda ko‘plab ma'lumotlarni keltirishimiz mumkin. Bibliografiyaning uslubiyoti bibliografik tadqiqotlarni o'rganish va amaliyotda qo'llashda aniq va o'ziga xos usullar va yondashuvlar tizimi hisoblanadi. Uslubiy yordam kutubxonachilar, axborot mutaxassislari va tadqiqotchilar uchun kerakli tavsiyalarni ishlab chiqadi va amaliy faoliyatga tatbiq etilishini

ta'minlaydi.Hujjat Hujjatlar oqimi Hujjatlaming asosiy turlari Axborotm olish va qayta ishlash tizimidagi o'mi bo'yicha xujjatlar turi

**21-mavzu: Annotatsiyalash jarayoni. Annotatsiya turlari va tuzish usullari. Rcfcratlash jarayoni. Rcfcrat turlari va tuzish usullari.**

Ma’lumot annotatsiyasi Tavsiya annotatsiyalari Annotatsiyalash. Referatlash jarayoni.Referatlashni asosiy funksiyalari.Referatni klassifikatsiyalash. Annotatsiyadagi elementlar to‘plami bibliografik tavsifning to‘laligiga, bibliografik axborotning qay darajada tayyorlanganligiga va annotatsiyaning turiga bog‘liq. Ma’lumotnoma annotatsiyasida tavsifdan tushib qolgan sarlavhani aniqlovchi elementlar, faktik yoki qo‘shimcha, hujjatning ahamiyati va mazmuni, shakli va janri, tuzilishi va boshqa xususiyatlari haqida ma’lumotlar beriladi. Tavsiya annotatsiyasida elementlarning har biriga vazifasiga ko‘ra tushuntirish beriladi.

**22-mavzu: Bibliografik qo‘llanmalarni yaratish uslubiyoti.**

Mavzuni tanlash va o‘rganish. Reja-prospekt. Bibliografik qo‘llanma tayyorlashning maxsus usuli. Bibliografiyaning uslubiyoti — bu bibliografik tadqiqotlarni o'rganish va amaliyotda qo'llashda aniq va o'ziga xos usullar va yondashuvlar tizimi hisoblanadi. Uslubiy yordam kutubxonachilar, axborot mutaxassislari va tadqiqotchilar uchun kerakli tavsiyalarni ishlab chiqadi va amaliy faoliyatga tatbiq etilishini ta'minlaydi

**23-mavzu: Kutubxona-axborot muassasalarning ma’lumot-bibliografiya apparati (MBA): an’anaviy va elcktron shakllari.**

Ma’lumot-bibliografik apparat haqida umumiy tushuncha. Ma’lumot-bibliografik apparatni tashkil etish va uni ma’lumotnoma nashrlar bilan to’ldirish. Kutubxonaning ma’lumot-bibliografik fondi. Bibliografiya bu bibliografik qo‘llanma shaklida hujjatlashtirilgan bibliografik ma’lumotlarni ishlab chiqarish (tayyorlash)

**24-mavzu: Kutubxona-axborot muassasalarning ma’lumot-bibliografiya apparatini tashkil etish va shakllantirish usullari.**

Kutubxona-axborot muassasalarning ma’lumot-bibliografiya apparatini. Katalog va kartotekalar tizimi. Markaziy kataloglarga yordamchi-apparat va rahbar hujjatlar. Alifbo-predmet ko‘rsatkichi (APK). Bibliografik kartotekalar. O‘lkashunoslik kartotekasi. Zamonaviy kutubxona turli resurslarga ega bo'lgan murakkab axborot tizimi. Har bir kutubxona o‘zining yo‘nalishi va maqomidan qat’i nazar, o‘zining ma’lumot-bibliografik apparatiga (MBA) ega bo‘lib, u kutubxona fondini ko‘p qirrali aks ettirish va ochib berish, o‘quvchilarni kerakli ma’lumotlar bilan ta’minlash hamda professional kutubxona-bibliografik faoliyatni rag‘batlantirish uchun mo‘ljallangan, o‘zaro bog‘langan va bir-birini to‘ldiruvchi murakkab qismlardan iborat. Lekin birinchi navbatda SBA ko'p qirrali ma'lumotlarni qidirish imkonini

**25-mavzu: Kutubxona-axborot muassasalarida bibliografik faoliyatni boshqarish: maqsadlari, vazifalari, tamoyillari**

Boshqaruv tamoyillari, usullari va vazifalari. Tashkiliy - boshqaruv (ma’muriy) usuli. Iqtisodiy boshqaruv usuli. Boshqarishning ijtimoiy psixologik usullar. Boshqarishning vazifalari. Bibliografik faoliyat - bibliografik ma'lumotlarga bo'lgan ehtiyojni qondirishga qaratilgan axborot faoliyati sohasidir. Bibliografik faoliyat axborot va bilimlar makonida yo‘naltirishning bibliografik vositalarini yaratish, foydalanish va o‘rganishga qaratilgan.

**26-mavzu: Kutubxona-axborot muassasalarida bibliografiya ishini rejalashtirish: maqsadlari, turlari, tamoyillari**

Bibliografiya ishini rejalashtirish. Istiqbol va joriy rejalashtirish.

Bibliografiya ishlarini rejalashtirish uslublari. Bibliografik ishlarni rejalashtirish ishni tashkil

qilishni takomillashtirish, balki, barcha jarayonlar, buxgalteriya hisobi va hisoboti ustidan tizimli nazorat o'rnatish imkonini beradi. Umumiy rejalashtirish metodologiyasi. Axborot-bibliografik tadbirlarni rejalashtirish butun kutubxona ishini rejalashtirish doirasida, yagona tamoyillar asosida, umumiy usullardan foydalangan holda amalga oshirish.

**27-mavzu: Kutubxona-axborot muassasalarida bibliografik jarayonlarini meyorlash va hisobga olish tartibi, qoidalari**

Bibliografiya ishini hisobga olish va. hisobga olish shakllari. Ma’lumot - bibliografik ishlami hisobga olish birliklari, xususiyatlari Bibliografiya ishining nazorati va hisoboti. Yillik hisobotning shakli Meyorlashtirish - jamiyat rivojlanishining iqtisodiy va ijtimoiy qonuniyatlarining namoyon bo'lish shakllaridan biri bo'lib, keng ma'noda tashkilotlar yoki shaxslar faoliyatini tartibga solish uchun yagona normalar, qoidalar (standartlar) ni belgilash va qo'llash jarayoni sifatida tushuniladi

**28-mavzu: Kutubxona-axborot muassasalarida bibliografik faoliyatni uslubiy boshqarish. Uslubiy xizmat shakllari va o‘ziga xos xususiyatlari**

Bibliografik faoliyatni uslubiy ishlarining asosiy shakllari. Bibliografik faoliyatni taxlil qilish. Bibliografik faoliyatni rejali tekshirish. Kutubxona-axborot muassasalarida bibliografik faoliyatni uslubiy boshqarish kutubxonalarda axborotni tartibga solish, ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va foydalanuvchilar uchun oson foydalanish imkonini yaratish jarayoni. Ushbu jarayonning asosiy maqsad axborotning samarali tarqatilishi va foydalanilishi, shuningdek, bibliografik resurslarni yaratish va yangilashdan iborat. Bibliografik faoliyat kutubxonada kitoblar, maqolalar, ilmiy ishlar, konferensiya materiallari va boshqa turdagi axborotlarni to‘plash, tartiblash va indeksatsiya qilishni o‘z ichiga oladi.

**29-mavzu: Kutubxona-axborot muassasalarida foydalanuvchilarda axborot madaniyatini shakllanrtirish ishlari.**

Axborot madaniyati. Bibliografik madaniyat. Zamonaviy axboot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmasini va madaniyati. Muloqat madaniyati, kutubxona-axborot muassasalarida axborot madaniyatini shakllantirish ishlari foydalanuvchilarning axborotni samarali, etik va ilmiy maqsadlar uchun ishlatish qobiliyatini rivojlantirish. Bu jarayon kutubxonalar va axborot muassasalarining ijtimoiy va ma'rifatparvar rolini mustahkamlashga xizmat qiladi. Foydalanuvchilarga axborotni samarali izlash, baholash, tanlash va ishlatish bo'yicha ko'nikmalarni o'rgatish, jamiyatda ilg'or fikrni rivojlantirishga yordam berish.

**30-mavzu: O‘lkashunoslik nashrlarining turlari va xillari**

OIkashunoslik adabiyotlami kitobxonlik doirasi va maqsadi bo‘yicha ilmiy, ilmiy ommabop, arslik ma lumot, hujjatli va badiiy nashrlarga ajratilishi. Ilmiy nashrlami nashrga tayyorlovchi tas I ilotlar va ulaming faoliyati. Ilmiy -ommabop, darslik, hujjatli nashrlami nashrga tayyorlovchi nashnyotlar va tashkilotlar faoliyati tahlili. Kutubxonalarda o‘lkashunoslik bibliografik xizmatini tashkil qilish. O‘lkashunoslik adabiyotlari bo‘yicha ilmiy kutubxonalarda ma’lumot bibliografik xizmati o rsatis uslubiyoti; Kitobxonlarga o‘lkashunoslik adabiyotlari bilan xizmat ko‘rsatish va kutubxona bibliografik xizmat ko‘rsatishga jalb qilish. Kutubxonalarda o’lkashunoslik.
bo yicha ilmiy yordamchi, tavsiya bibliografik qo‘lamalarining tuzilishi. Respublika viloyat, tuman kutubxonalarinig o‘Ikashunoslik adbiyotlarini bibliografiyalash faoliyatini taxlil qilish.

**31-Mavzu: Kutubxonalarda o‘lkashunoslik bibliografik xizmatini tashkil qilish.**

Keyingi yillarda kitobxonlarning o‘z o‘lkasi tarixi, fani, madaniyati, tabiati, xalq xo‘jaligi, aholisining milliy va etnik tarkibi, ijtimoiy hayotiga qiziqishi. Olimlar, yozuvchilar, publitsistlar mamlakatda o‘lkashunoslik harakatining o‘lkashunos-tashabbuskorlarning o‘lka boyligini aniqlash, saqlash va ko‘paytirish bo‘yicha amaliy tajribasini baholash. O‘lka haqidagi adabiyotlar

bilan olib boriladigan xizmat shakllari. AKM lari va boshqa kutubxonalar uchun namunaviy qo‘llanmalar tizimi bo‘ladigan o‘lkashunoslik tavsiya va ilmiy-yordamchi bibliografik qo‘llanmalarini yaratish; mahalliy tashkilotlar, muassasalar, korxonalar, kutubxonalar, xalq xo‘jaligi mutaxassislari va madaniyat arboblari va boshqalarga ma’lumot-bibliografik xizmat ko‘rsatish va bibliografik axborot bilan ta’minlash.

**32-mavzu: Ijtimoiy fanlar bibliografiyasining tarixi va mustaqillik yillardagi istiqbollari**

Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar bibliografiyasi bibliografik bilimlami muhim tarkibiy qismi. Ijtimoiy fanlar bibliografiyasining rivojlanish taraqqiyoti. Ko‘rsatkichlaming tuzilishi, materiallami joylashishi, bugungi kunda ulami ijtimoiy-siyosiy fanlami rivojlantirishdagi ahamiyati. Mustaqillik yillarda O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar bo‘yicha kundalik, retrospektiv, shaxs ko‘rsatkichlarining rivojlanish. Ko‘rsatkichlarda, materiallami joylashtirilishi, yordamchi apparatlar bilan ta’minlanishi.

**33-mavzu: Ijtimoiy-gumanitar fanlar bo‘yicha nashr turlari va xillari. Ijtimoiy-gumanitar fanlar bibliografiyasining maqsadi, vazifalari**

Ijtimoiy-gumanitar fanlar bo‘yicha adabiyotlaming kitobxonlik doirasi va maqsadi bo‘yicha ilmiy, ilmiy-ommabop, darslik, malumotli, hujjatli va badiiy nashrlarga ajratilishi. Ilmiy nashrlar, ulami nashr qilinish shakillari. Ilmiy tadqiqot ishlarining hajmi, mazmuni va sifati ijtimoiy fanlarning rivojiga bog‘liq bo'lishi. Ijtimoiy-siyosiy ilmiy ommabop nashrlari. Ijtimoiy-gumanitar sohadagi o‘quv adabiyotlari. Ijtimoiy-gumanitar sohadagi ommabop ma’lumotnoma va axborot nashrlari. Ijtimoiy-gumanitar fanlar ilmiy-yordamchi bibliografiyalari. Bibliografik axborot- bu hujjatlar haqidagi tezkor xabar (signal), u hujjatlaming bibliografik tavsifi yoki asosiy ma’lumotlar bilangina cheklangan bibliografik ko‘rsatkich. Referativ axborot- referativ jumal, ilmiy-axborot to‘plamlari. Referativ jumal- bu hujjatlar haqida axborot beruvchi jumal ko‘rinishidagi vaqtli nashr. Referativ to‘plam- aniq bir sohadagi ilmiy-texnik yutuqlami aks ettiruvchi materiallami yig‘uvchi vaqtli yoki davomli referativ nashr. Retrospektiv ilmiy-yordamchi bibliografik qo‘llanmalar.

**34-mavzu: Bibliometrika va ilmiy adabiyot tarixi: bibliografik tahlil orqali ilmiy soha rivoji** (seis.ucla.edu)

Bibliometrika va bibliografik tahlil ilmiy adabiyot tarixini raqamli va statistik asosda o‘rganish imkonini beradi. Bu usullar yordamida ilmiy sohalarning rivoj yo‘nalishlarini, mualliflar va nashrlarning o‘zaro aloqalarini aniqlash mumkin.
Ilmiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, yangi yo‘nalishlarni aniqlash va ilmiy siyosatni shakllantirishda bibliometrika muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

**35-mavzu: Huquqiy nashrlar va ularning bibliografiyasi**

Huquqiy nashrlar ularning kitobxonlik doirasi va maqsadi bo‘yicha nashr turlariga ajratilishi. Adabiyotlaming turlari va xillari. Bibliografik ko‘rsatkichlami tuzishda yosh kitobxonlami yoshi va qiziqishini hisobga olish. Xuquqiy nashrlami davlat ahamiyatiga ega ekanligi.Huquqiyga oid bibliografiyani davlatning ichki va tashqi siyosatiga bog‘liqligi. Huquqiy nashrlar bibliografiyasini jamiyat taraqqiyotiga qarab rivojlanishi.

**36-mavzu: Badiiy adabiyot va adabiyotshunoslikka oid nashr turlari va xillari**

Badiiy adabiyot va adabiyotshunoslikka oid nashrlar turli xil turlar va xillarga bo‘linadi. Adabiy-badiiy nashrlarning tipologik xususiyatlari adabiy asarning o‘ziga xos xususiyatlari. Adabiy asarni nashrga sifatli va malakali tayyorlash. Adabiy asar o‘zining predmeti va vazifalariga ko‘ra san’at bilan, nashriyot bilan esa o‘quvchi

manzili va nashrlardan ko‘zlangan maqsad bilan bog‘lanadi. Badiiy adabiyotni o‘qish jarayonida shaxsning hissiy sohasi faollashadi, insonning badiiy didi shakllanadi, o‘qish qobiliyati o‘sadi. Badiiy adabiyot va adabiyotshunoslikka oid nashr turlari va hillari juda hilma-hil.

**37-mavzu: Badiiy adabiyotlar va adabiyotshunoslik bibliografiyasining maqsad va vazifalari**

Badiiy adabiyot san’at asari u, obrazli tafakkur orqali insonning ichki dunyosi, hayoti, jamiyatdagi o‘rni va munosabatlarini aks ettiruvchi yozma asarlar. Badiiy adabiyot o‘quvchini estetik tarbiyalash, ruhiy oziqlantirish, hayotiy hodisalarni chuqur anglatish maqsadida yaratiladi Badiiy asarga estetik baho berish, adabiy jarayonni ilmiylik asosida baholash. Kitobxonlami badiiy asami nazariy jihatdan tahlil va talqin qila bilish malakasiga ega bo‘lishi, adabiy jarayonni ilmiylik asosida baholash ko'nikmalarini hosil qilishga yordamlashish.

**38-mavzu: San’atshunoslik va san’atga oid adabiyotlaming nashr etilishi, ularning turlari va xillari ularni bibliografiyalash**

San'at tarixiga bag'ishlangan asarlarda turli millatlar va shuningdek, o‘rganilayotgan muammolarga oid adabiyotlar ro‘yxati kiritilgan. O‘tgan davrda san'at tarixi bibliografiyasining alohida yo‘nalishi. Bibliograf olim O. S. Ostroy ta’kidlaganidek, fazoviy san’atga oid badiiy-tarixiy bibliografik adabiyotlar ushbu soha uchun ham an’anaviy, ham o‘ziga xos shakllarini qamrab oladi. Uunydsini San’atshunoslik va san’atga oid adabiyotlaming turlar va xiilari. Vaqtli matbuotlar, ma’lumotnoma nashrlar va boshqalami ahamiyati.

**39-mavzti: San’atshunoslik va san’at asarlarining bibliografiyasi**

San’atshunoslik va san’at asarlari bibliografiyasining ahamiyati va uning takomillashtirish yo’llari. San’at bibliografiyasi tushunchasining ta’rifi. Tasviriy san’at asarlarining tavsifi va uning o’ziga xos uslublari.Tasviriy san’at nushrlarining turlari va xususiyatlari.
San’at mavzusidngi retrospektiv va tavsiya bibliografik qo’llanmnlar tuzish uslubiyoti.

**40-mivzu: Tabiiy fanlarga oid adabiyotlar va nashr turlar va xillari.**

Tabiiy fanlarga oid adabiyotlarinig o‘ziga xos xususiyatlari, nashr turlari va xillari. Tabiiy fanlarga oid ilmiy, ilmiy -ommabop, darslik, o‘quv adabiyotlari, ma’lumotnoma nashrlari, ensiklopediyalar. Respublikamizda tabiiy fanlarga oid vaqtli matbuot nashrlari va ulami tahlili.

**41-mavzu: Tabiiy fanlarga oid bibliografik qo‘llanmalarning turlari va istiqbollari.**

Tabiiy fanlarga oid bibliografik qollanmalaming turlari. Kundalik, retrospektiv qo llanmalar tizimi. Ushbu ko‘rsatkichlarda materillaming joylashtirilishi, rasmiylashtirilishi va yordamchi apparatlar bilan ta’minlangani. Bibliografik ko‘rsatkichlar tizimi va muammoli ma'lumotlar bazalari tabiiy fanlar sikli bo‘yicha kompleksning asosiy qismini tadqiqot uchun hujjatli resurs bazasi bo‘lgan va tadqiqotchilar, aspirantlar uchun qiziqarli bo‘lgan ilmiy, ma'lumotnoma, ilmiy va ishlab chiqarish adabiyotlari to‘g'risidagi ma'lumotlarni o‘z ichiga olgan bibliografik ko‘rsatkichlar va muammoga yo‘naltirilgan ma'lumotlar bazalari tizimi tashkil etish.

**42-mavzu: Qishloq xo‘jaligiga oid adabiyotlarning turlari va xillar.**

Qishloq xo‘jaligiga oid adabiyotlarning o‘ziga xos xususiyatlar, nashr turlar va xillari. Qishloq ho‘jaligiga oid ma’lumotnoma nashrlar, ensiklopediyalar.Qishloq ho‘jaligiga oid ilmiy, ilmiy — ommabop, darslik, o‘quv adabiyotlari, ma’lumotnoma nashrlari, ensiklopediyalar. Respublikamizda qishloq ho‘jaligiga oid vaqtli matbuot nashrlari va ulami tahlili.

**43-mavzu: Texnika fanlariga oid adabiyotlar va nashrlarni turlari va xillari**

Texnika fanlar adabiyotlarinig o‘ziga xos xususiyatlari, nashr turlari va xillari. Kitoblar va kichik risolalar, vaqtli va davomli nashrlar, elektron ma’lumotlar bazasi va hokozalar. Texnika fanlariga

oid ilmiy, ilmiy - ommabop, o‘quv adabiyotlari, ishlab chiqarish adabiyotlari, ma’lumotnoma nashrlari, ensiklopediyalar. Nashr qilingan ma’lumotnoma nashrlaming ahamiyati. Texnikaga oid vaqtli matbuot nashrlari va ulami tahlili.

**44-mavzu: Texnika fanlariga oid bibliografik qollanmalarning turlari va rivojlanish tendetsiyalari.**

Texnika fanlariga oid bibliografik qo‘llanmalaming turlari. Kundalik, retrospektiv qo‘llanmalar tizimi, shaxs biobibligrafiyalari (energetika, radioelektronik, konchilik, metallar, mashinasozlik, qurilish, transport fanlari doktorlari, akademiklar) tizimi. ’’Referativ jumallar” tizimi va hozirgi kunda uning ahamiyati, elektron shakllardan foydalanish yo‘llari. Texnikaga oid bibliografik korsatkichlarda materillaming joylashtirilishi, rasmiylashtirilishi va yordamchi apparatlar bilan ta’minlanganligini o‘ziga xosligi.

**IV. Amaliy mashg‘ulotiar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar**

*Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.*

1. Biror sohaga oid an’anaviy va elektron bibliografik axborot tayyorlash

3. 2. 0‘zbekistonning yirik bibliograflari haqida axborot tayyorlash

4. Bibliografiyaning obyektlarini o‘rganish. Nodavriy va vaqtli matbuot nashrlarini tahlil qilish

5. Bibliografiya turlarini o‘rganish. Milliy, davlat, soha, ilmiy-yordamchi, tavsiya, shaxs bibliografiyalarga oid adabiyotlami aniqlash va tahlil qilish

6. 0‘zbekistonda bibliografiya ishining tashkiliy tuzilishi haqidagi materiallami yig‘ish, alohida axborot-kutubxona muassasalarining bibliografiya faoliyatini tahlil qilish va axborot tayyorlash

7. Bibliografik nashr mazmunini tahlil qilish. O‘zbekiston Respublikasi Kitob palatasining universal nashrlarining tahlili

8. Tabiiy fanlarga oid adabiyotlarning bibliografik ro‘yxatini tuzish

9. Universal, mavzuli, sohaga oid bibliografik qo‘llanmalar tuzish

10. O‘lkashunoslik bibliografik materiallar bilan ishlash. O‘lkashunoslik elektron bibliografik qo‘llanma yaratish

4. 11. O‘zbekiston Davlatining atoqli arboblarining, yozuvchilaming hayoti va ijodi haqida bibliografik ko‘rsatkich tuzish

12. AKMning ma’lumot-bibliografik qidiruv apparati (MBQA)ni o‘rganish vama’lumotnomayozish

5. 13. So‘roqlarni bajarish. Bajarilgan so‘rovlami tahlil qilish

14. “Bibliografiya kuni” dasturini ishlab chiqish. “Mutaxassis kuni”, “Axborot kuni” dasturlarini ishlab chiqish

15. Ijtimoiy fanlar, tibbiyot, san’at, badiiy adabiyot, tarixga doir virtual kitob ko‘rgazmasini tashkil qilish

6. 16. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlaming nashr turlar va xillari bibliografik tavsif berish.

17. 1jtimoiy-siyosiy adabiyotlar doir bibliografik ko‘rsatkich tuzish.

18. 1jtimoiy -siyosiy adabiyotlar doir kundalik bibliografik ko‘rsatkichlar tahlili.

19. Tabiiy fanlari adabiyotlar nashr turlar va xillari bibliografik tavsif berish.

20. Tabiiy fanlarga oid retrospektiv ko‘rsatkich tuzash

21. Tabiiy fanlarga oid tavsiya ko‘rsatkich tuzish.

22. Qishloq xo‘jaligiga oid nashrlaming turlari vaxillarini bibliografiyalash.

23. Vaqtli matbuot nashrlarida chop etilgan qishloq xo‘jaligiga oid manbalami bibliografiyalash..

24. Texnika fanlari adabiyotilar oid bibliografik ko‘rsatkich tuzish.

| | |
|---|---|
| | 25. Texnika fanlarga oid bibliografik ko‘rsatkichlaming tahlili.<br>26. Badiiy adabiyot va adabiyotshunoslik oid nashr turlarinng tahlili.<br>27. Shoir, yozuvchi va adabiyotshunos olim haqida bibliografik ko‘rsatkich tuzish.<br>28. O‘lka haqidagi badiiy nashrlami va vaqtli matbuot sahifalarida chop etilgan manbalami bibliografiyalash.<br>29. San’atshunoslik va san’atga oid adabiyotlaming xillari va turlarini bibliografiyalash.<br>30. Vaqtli matbuotda chop etilgan sohaga oid manbalami bibliografiyalash. 31. 1zografiya, notografiya, filmografiyaga oid nashrlami bibliografiyalash.<br>32. San’at oid adabiyotlar tavsiya ko‘rsatkich tuzish.<br><br>**V. Seminar mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar**<br>*Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:*<br>1. Bibliografiya tarixi: bibliografiya tushunchasi, kelib chiqishi, zamonaviy talqini.<br>2. “Bibliografiyashunoslik” fanining predmeti va vazifalari.Bibliografiya nazariyasi<br>3. .Soha va mutaxassislik fanlari bo‘yicha bibliografik axborotni shakllantirish uslubiyati 4.Bibliografiyaning ijtimoiy munosabatlardagi o‘mini belgilash masalalari<br>5. O‘zbekiston bibliografiyasining paydo bo‘lishi va rivojlanishi.<br>6. O‘zbekistonda sobiq sho‘rolar hokimiyati davrida bibliografik faoliyatning tashkil qilinishi. tashkil etishga doir meyoriy-hujjatlar sharhi<br>7. O‘zbekistonda bibliografiya ishining hozirgi ahvoli<br>8.O‘Ikashunoslik bibliografiyasi nazariyasi va uslubiyati<br>9. Kutubxona o‘lkashunosligining mohiyati, maqsadi, mazmuni<br>10.O‘lkashunoslik nashrlaming turlari va xillari<br>1 l.Kutubxonalarda o‘lkashunoslik bibliografik xizmatini tashkil qilish<br>12.Sohalar bibliografiyasining obyekti, predmeti, maqsadi va vazifalari.<br>13.Ijtimoiy -siyosiy adabiyotlar bibliografiyasi obyekti sifatida, ijtimoiy-siyosiy mazmundagi adabiyotlarini bibliografiyalash.<br>14.Ijtimoiy fanlar bibliografiyasining tarixi va mustaqillik yillardagi istiqbollari.<br>15.Mustaqil davlatlar hamdo‘stligida va ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar bibliografiyasining tashkil etilishi<br>16.Tabiiy fanlari adabiyotlar va nashr turlar va xillari,ulami bibliografiyalash.<br>17.Tabiiy fanlarga oid bibliografik qo‘llanmalarning turlari va istiqbollari.<br>18.Qishloq xo‘jaligiga oid adabiyotlaming turlari va xillar, ulami bibliografiyalash, bibliografik qo‘llanmalar tuzish uslubiyati, qo‘llanmalar tizimi.<br>19.Texnika fanlari adabiyotilar va nashr turlar va xillari ulami bibliografiyalash.<br>2O.Texnika fanlarga oid bibliografik qo‘llanmalaming turlari va rivojlanish tendctsiyalari.<br>21.Badiiy adabiyot va adabiyotshunoslik bo’yicha nashrlamingoqimlari va turlari.<br>22.Badiiy adabiyot sohasida bibliografik ishlaming xususiyatlari va rivojlanish istiqbollari.<br>23.O‘lkashunoslik adabiy bibliografiyasining uslubiy masalalari<br>24.San’atshunosliik va san'atga oid adabiyotlaming nashr ctilishi. ulaming turlari va xillari va bibliognifiyalash.<br>25.San’at asarlarining bibliografiyasi<br>26.San at bo'yicha rctrospcktiv va tavsiya bibliografik qo'llanmalar tuzish uslubiyati, tuzilgan bibliografik qo'llanmlaming tizimi<br><br>**VI. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar** |

| | | |
|---|---|---|
| | | *Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:*<br>Axborot-kutubxona axborot-rcsurs markazlarining bibliografik faoliyati.<br>1. Bibliografik ishning vazifalari va mazmuni haqida refcrat yozish.<br>2. Oliy ta’lim ARMning bibliografik faoliyati.<br>3. Bibliografik qidirish. ta'rifi. Bibliografik tanlash, ulaming manzili. Bibliografik guruhlash, guruhlaming maqsadi. turlari.<br>4. Dolzarb mavzuda clektron bibliografik qo'llanma tuzish.<br>5. Tavsiya ko‘rsatkichlarining kichik shakllari (tavsiya ro‘yhatlari) ni tuzish<br>6. O‘qish rcjalari, shaxsga oid esdaliklar tuzish<br>7. Adabiyotlar ro'yhatlari (byulletcnlar) bilan tanishish, ro‘yhat tuzish<br>8. Og‘zaki bibliografik sharhlami tayyorlash va o‘tkazish. Bibliografik sharhlami turlari.<br>9. Ommaviy bibliografik axborotlashtirish. Guruhli va yakka tartibda bibliografik axborotlashtirish.<br>10. Bibliografik qo‘llanmalaming turlarga klassifikatsiyalanishi (mezonlari, qoidalari, chegaralari bo'yicha tahlil qilib o'rganish)<br>11. Sohalar bibliografiyasining obyekti, predmeti, maqsadi va vazifalari (tarixiy rivojlanishi)<br>12. 1jtimoiy-siyosiy adabiyotlar bibliografiyasi obyekti sifatida.<br>13.Ijtimoiy-siyosiy mazmundagi vaqtli matbuot nashrlari (2019-2022) ro‘yxati-ni shakllantirish.<br>14. Davlat arboblari asarlarining bibliografik ko'rsatkichini tayyorlash.<br>15.1jtimoiy fanlar bibliografiyasining tarixi.<br>16.Mustaqillik yillardan ijtimoiy fanlar bibliografiyasi<br>17.Tabiiy fanlari adabiyotlar va nashr turlar va xillari, ulami bibliografiyalash.<br>18.Tabiiy fanlarga oid bibliografik qo'llanmalaming turlari va istiqbollari.<br>19.Abu Rayhon Beruniyning bibliografik faoliyati.<br>20.Tabiiy fanlari (matematika, fizika,zoologiya, ximiya,) akademik ilmiy unvonin olgan akdemiklaming bibliografik ko'rsatkichini tuzish<br>21.Qishloq xo'jaligiga oid adabiyotlaming turlari va xillar.<br>22.Qishloq ho'jaligi bo'yicha ma’umotnoma nashrlar ro'yxatini shakllantirish va nashrlaming tahlili.<br>23.Qishloq xo'jaligiga oid retrospektiv bibliografik qo'llanmalar tizimi va darning tahlili.<br>24.Qishloq xo'jaligiga oid adabiyotlar (2015-2022) bibliografik ko'rsatkichini tuzish.<br>25.Texnika fanlari adabiyotilar va nashr turlar va xillari ulami bibliogra- fiyalash.<br>26.Texnika fanlarga oid bibliografik qo'llanmalaming turlari va rivojlanish tendetsiyalari<br>27.Texnika fanlari bo'yicha akademik ilmiy unvonin olgan akdemiklaming bibliografik ko'rsatkichini tuzish<br>28.Badiiy adabiyot va adabiyotshunoslik bo'yicha nashrlaming oqimlari va turlari<br>29.Badiiy adabiyot sohasida bibliografik ishlaming xususiyatlari va rivojlanish istiqbollari.<br>30.Adabiy -badiiy ensiklopediyalar va ulaming tahlili, unda o'zbek yozuvchi,shoir adabiyotshunoslaming berilish.<br>31. O‘lkashunoslik adabiy bibliografiyasining uslubiy masalalari<br>32.San’atshunoslik va san’atga oid adabiyotlaming nashr etilishi, ulaming turlari va xillari, ulami bibliografiyalash<br>33. San’at asarlarining bibliografiyasi<br>34.San’at bo'yicha retrospektiv va tavsiya bibliografik qo'llanmalar tuzish uslubiyati va tuzilgan bibliografik qo'llanmlaming tizimi. |

35.Afodeimk Yunus Rajabiiy biobilografiyasini tuzish.

**VI. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**

Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:

- axborot-kutubxona faoliyati boshqarishning asosiy ilmiy -nazariy masalalari, umumiy tamoyillar, qonuniyatlar, metodologik asoslari, sohaning istiqbollari, jamiyatni axborotlashtirish xussiyatlari *haqida tasavvurga ega bo‘lishi;*
- ushbu fanni o‘zlashtirish davomida qo‘yiladigan talablar asosida amaliy va tajriba mashg‘ulot1arini bajarishlari,shuningdek fanning maqsadi, vazifasi, tamoyillari, qonuniyatlari, metodologiyasini va metodlarini, kutubxonalar tipologiyasini *bilishi va ulardanfoydalana olishi,* egallagan bilimlari asosida mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega bolishlari va ulami amaliy muammolami hal qilishda qo'llay olishlari, axborot-kutubxona faoliyatini boshqara olish *ko'nikmalariga ega bo‘lishi kerak.*

**VII. Ta’lim texnologiyalari va metodiari:**

- ma’ruzalar;
- amaliy ishlami bajarish va xulosalash;
- interfaol keys-stadilar;
- blits-so‘rov;
- guruhlarda ishlash;

**VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:**

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalami to‘la o‘zlashtirish, tahli natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlami bajarish, yakuni ynazorat bo‘yicha tect topshirish.

**Asosiy adabiyotlar**

1.Bibliografiyashunoslik: darslik /I.J.Yuldoshev, T.Bayturayev, G‘.Narzullayev H.Mamatraimrva - Toshkent, 2022.-236 b.

2.S.N.Yo‘ldasheva Bibliografiya fanini o‘qitish metodikasi: O‘quv qo‘llanma Qo‘qon:”ART PRESS”, 2024.-112 b.

3. S.N.Yo‘ldasheva Bibliografiyashunoslikning zamonaviy tendensiyalari: Monografiya Qo‘qon: ”ART PRESS”, 2024.- 102 bet.

4. D.To‘ychieva Bibliografiyashunoslik: O‘quv qo‘llanma Qo‘qon: ”ART PRESS”, 2023-106 b.

5. S.N.Yo‘ldasheva O‘qish psixologiyasi: O‘quv qo‘llanma Qo‘qon: ”ART PRESS”, 2022. - 146 b.

6. To‘ychiyeva Sh. Kutubxonalarning innovatsion faoliyati: O‘quv qo‘llanma. –Qo‘qon: “ART PRESS”, 2023.-109 b.

**Qo‘shimcha adabiyotlar**

1.Axborot-bibliografiya faoliyati, bibliografiy .Atamalar va tushunchalar: O‘zDSt 1214 Rasmiynashr: 2009 y. 14 aprclda № 05-143 ro’yxatgaolinganva 2009 y. 20 apr amalgajoriyctilaboshlagan / tuzuvchilar: M.X.Maxmudov, A.SH.Muxamadiyev; O‘zbekiston standartlashtirish, mctrologiya va sertifikatlash agentligi-Toshkent, 2009.- 86 b.

2.Bibliografik yozuv. Bibliografik tavsif: umumiy talablar va tuzish qoidalari: O‘zDSt 1215-Rasmi ynashr: 2009 y. 14 aprclda № 05-143 ro‘yxatga olingan va 2009 y. 20 apr. Amalga joriy etilaboshlagan / tuzuvchilar: X.Mamatraimova, D.Qudratova; O‘zbekiston standartlashtirish,

| | |
|---|---|
| | metrologiya va scrtifikatlash agentligi.- Toshkent, 2009 - 86 b.<br>3.Axborot-kutubxona va nashriyotchilik ishi bo‘yicha stanlartlar tizimi.-Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyot,2021.-464 b.<br>4.Spravochnik bibliografaya / nauch.red. A.N.Vaneyev, V.A.Minkina.- Sankt-Peterburg: Professiya,2006.-528s.- (Biblioteka).<br><br>**Axborot manbalari**<br>1.www.gov.uz-O‘zbekiston Resnublikasi hukumat portali.<br>2.www.lex.uz- O‘zbekiston ResDublikasi Oonun huiiatlari ma’lumotlari milliv bazasi<br>3.www.Ziyo.net<br>4.hffb:// www.Librarv.rv- menediment va marketing<br>hfip://www/ Library/ fio/ru- menedjment va marketing |
| **7.** | Fan dasturi Qo‘qon davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet kengashining 2025-yil 29-avgustdagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan. |
| **8.** | **Fan/modul uchun mas’ul:**<br>**S.N.Yo‘ldasheva –** «Texnika fanlari va kutubxonashunoslik» kafedrasi katta o‘qituvchisi |
| **9.** | **Taqrizchilar:**<br>**Sh.To‘ychieva -** «Texnika fanlari va kutubxonashunoslik» kafedrasi katta o‘qituvchisi<br>**D.To‘ychieva-** «Texnika fanlari va kutubxonashunoslik» kafedrasi katta o‘qituvchisi |